



ABDULLA QAHHOR IJODIDA TAQLID SO‘ZLAR

Xaytboyeva Muxlisa Muxtor qizi
Urganch davlat universiteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada taqlid so‘zlarning badiiy asar matnida qo‘llanishi Abdulla Qahhor ijodi misolida tahlil qilindi. Abdulla Qahhorning so‘z qo‘llash mahorati, asarlarida ifodalangan taqlid so‘zlarning ahamiyati xususida fikr yuritildi.

Kalit so‘zlar: badiiy matn, taqlid so‘zlar, tovushga taqlid, holatga taqlid, semantik belgi.

Taqlid so‘zlar – ma’no va shakliy xususiyatlariga ko‘ra, alohida guruhni tashkil qiluvchi kishilar, hayvonlar va boshqa jonli, jonsiz narsalarning tovushini, harakat-holat obrazini taqlidan ifodalovchi so‘zlar. Taqlid so‘zlarning ba’zilari tovushga taqlidni bildiradi, ba’zilari esa harakat-holat va hodisa obraziga taqlidni ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra taqlid so‘zlarning 2 turi farqlanadi:

A) tovushga taqlidni bildiradigan so‘zlar;

B) obraz (tasvir)ga taqlidni bildiradigan so‘zlar. Tovushga taqlid so‘zlar eshitish bilan, obrazga taqlid so‘zlar ko‘rish bilan aloqadordir, ya’ni tovushga taqlid so‘zlar ifodalagan tovushni faqat eshitish mumkin (*qars-qurs, taq, duk-duk, g‘iyq, miyov* kabi); obrazga taqlid so‘zlar ifodalagan holat, harakatni faqat ko‘rish mumkin (*jivir-jivir, lip-lip, yalt-yult, hang-mang*).

Taqlid so‘zlarga -illa, -ulla, -ira, -la qo‘shimchalari qo‘shilganda fe’l yasaladi. Masalan: lovulla, taqilla, shaqilla, dupurla, hiqilla, yarqira, sharqira. Ot bilan sifat ham yasash mumkin: sharshara, qahqaha, jizza, qarsak, varrak, tarsaki – bularda ot yasalgan. “Jizzaki” da esa sifat yasalgan. Asosi “jiz” taqlid so‘zi¹.

Adabiyotimizda o‘chmas iz qoldirgan ijodkor Ibrohim Haqqul aytganidek: “Ijodkorni sayoz fikrlash, bachkana his-tuyg‘ularni qog‘ozga ko‘chirishdan, eng avvalo, til muhofaza qiladi. Tilga javobgarlik so‘z, tasvir, uslubga javobgarlik demakdir. Bir ma’noda iste’dod so‘zga jon bag‘ishlash, o‘lik so‘zni ham tiriltirishdir. Iste’dodsizlik esa buning aksi, hatto tirik so‘zni ham o‘ldirishdir”. Ana shunday so‘zga jon bahshida etgan, o‘zbek adabiyotida o‘z asarlari bilan o‘chmas iz

¹ Isroilova H. “Abdulla Qahhor asarlarining leksik xususiyatlari”, maqola, 2022.



qoldirgan, adabiyotimizning zabardast vakillaridan biri Abdulla Qahhordir. Uning hikoyalari tilining soddaligi, keskinligi hayotni boricha ko'rsata olganligi bilan ajralib turadi.

O'zbek adabiyotining yorqin vakili, o'z asarlari bilan adabiyotshunosligimizda o'chmas iz qoldirgan, o'zbek hikoyachiligini yangi pog'onaga olib chiqqan Abdulla Qahhor ijodidagi taqlid so'zlarni o'rganib chiqamiz.

Bilamizki, Qahhor o'z ijodida "oz so'zda ko'p ma'no" uslubini qo'llagan. U o'z qahramonlarining har bir xatti-harakatiga ma'lum ma'no-mazmun yuklaydi. Hech bir so'zni "uvol qilmaydi". Shu qatorda taqlid so'zlardan ham unumli foydalangan. Masalan, "Anor" hikoyasidan olingan ushbu parchalariga e'tibor bering:

"Hovli yuzida aylanib yurgan oqsoq mushuk to'kilgan jo'xorini iskab ko'rdi, ma'qul bo'lmadi, shekilli, Turobjonga qarab shikoyatomuz "mau" dedi"².

"Masjiddagi keksa baqaterak orasidan ko'tarilgan qizg'ish o't ko'kka olovli iz qoldirib juda yuqoriladi va go'yo osmongga urilganday chilparchin bo'lib, "pop" etdi"³.

Ko'rinib turibdiki, Qahhor mushukning "mau" degani ortida jo'xoridan noroziligini ko'rsatgan. "Mushuk yemagan narsani ikkiqat xotin qanday yesin" degandek go'yo. Ikkinchi gapda esa ijodkor bir devorning ikki tarafida, bir yonida kambag'alligidan homilador xotiniga ko'ngli tusagan narsasini olib berolmayotgan Turobjon va narigi tomonida beshik to'yi qilayotgan Mullajon qozining osmonga mushaklar uchirayotgani tasvirlangan. Bu yerda davrdagi ijtimoiy muhitga ishora qilingan.

Abdulla Qahhorning yana bir hikoyasida shunday epigraf qo'yilgan: "Ola qarg'a qag'-qag' etadi, O'z vaqtini chog' etadi" (Maqol).

Bu yerda ham taqlid so'z qo'llangan.

"...Mulla Said Jalolxon shuni ko'nglidan o'tkazib devorga suyandi va ko'zlarini yumdi, burniga qo'ngan pashshani qo'lidagi ro'molcha bilan ko'rish malol keldi, shekilli, ostki labini cho'zib "puf" dedi. Pashsha ko'tarildi, ammo shu ondayoq uning labiga qo'ndi..."

"...Uyda g'ij-g'ij bo'lib yotgan bu pashshalarning qaysi biri o'sha?..."

² Abdulla Qahhor "Anor" hikoya.

³ Abdulla Qahhor «Dahshat» hikoyalar to'plami. «Anor» hikoyasi. www.ziyouz.com (<http://www.ziyouz.com/>), 2008, b-9.

“...Said Jalolxon xuddi baland yerdan o‘zini tashlaganday, yuragi “**shuv**” etib qanot chiqardi va uchdi...”⁴

Yuqoridagi parchalarida adib xalq so‘zlashuv tiliga mos ravishda taqlid so‘zlarni qo‘llagan. Ularning o‘rniga boshqa so‘z yoki iboralardan foydalanishi mumkin edi, biroq aynan taqlid so‘zlardan foydalanilgani hikoyaning tushunarlilikini oshirgan. Oddiy o‘quvchilar hikoyani o‘qib undagi voqealarni o‘z miyasida jonlantira oladi.

“...San’atkor ko‘zini yumdi, ko‘ziga **g‘ira-shira** qorong‘i zaldagi son-sanoqsiz kallalar ko‘rindi. Bular ichida eng kattasi traktorchining kallasi, u iljayar edi.

— Afting qursin! — dedi san’atkor va narigi yonboshiga ag‘darildi. Xayol o‘tmay uyquga ketib, xurrak otdi. Uning xurragi ham nechukdir adabiyroq edi: “**Pluq-qum-prr... pluq-qum-prr...**”⁵

Keltirilgan parchada ham holatga (g‘ira-shira), ham tovushga taqlid (pluq-qum-prr... pluq-qum-prr...) ishtirok etgan. Yozuvchi qahramonning qanday xurrak otishini o‘quvchiga anglatish uchun taqlid so‘zdan foydalangan va albatta, buning uddasidan chiqqan.

“...Ikki tanqidchi **yalt** etib bir-biriga qaradi va bu qarashda ikkovi ham ko‘nglidan bir gap o‘tdi: “Bola ham shunday o‘jar bo‘ladimi?” Suyar ichkariga kirib ketdi...”⁶

“Xo‘sh, tag‘in nimalar qiladi?

— Tag‘in... ursam “baribir og‘rimaydi” deb **xir-xir** kuladi... Ha, aytgancha, bir yildan beri biron marta “aya” deganini eshitganim yo‘q, hamisha “Turondot” deydi?⁷

Har ikkala parchada ham holatga taqlidni ko‘rishimiz mumkin. Abdulla Qahhor obrazlarning holatini yaqqol ko‘rsatib bergan.

“...Qumriniso **yalt** etib Asqar otaga qaradi, bir nima demoqchi bo‘lib ikki-uch og‘iz rostlaganidan keyin:

— Mening hech nimam bo‘lmaydi, Risolatdan so‘rang, - dedi...

— “Nima qildi, tomog‘ing og‘ridimi?” — desam, “eshik qisib oldi” deb xir-xir kuladi...”⁸

“...Kunlardan bir kuni mahallada **duv-duv** gap bo‘lib qoldi: «Muxtorxon domla uylanarmishlar !..»⁹

⁴ Abdulla Qahhor aynan shu asar. «Bashorat» hikoyasi, b-16.

⁵ Abdulla Qahhor “Dahshat” hikoyalar to‘plami. “San’atkor” hikoyasi, b-20.

⁶ Abdulla Qahhor yuqoridagi asar. “O‘jar” hikoyasi, b-26.

⁷ Abdulla Qahhor “Ayb kimda” hikoyasi, b-37.

⁸ Abdulla Qahhor “Dahshat” hikoyalar to‘plami, “Xotinlar” hikoya, b-39.

⁹ Abdulla Qahhor “Dahshat” hikoyalar to‘plami, “Toyda a‘za” hikoya, b-62.



“...Bu taklifni hamma olqishladi, buning mutasaddisi kim bo‘ladi, degan savolga hamma **qiy-chuv** ko‘tarib yana Hikmat buvani ko‘rsatdi...”¹⁰

Yuqorida keltirilgan gaplarda ham taqlid so‘zlar orqali ijodkor o‘z o‘quvchisiga asar qahramonlarining holatini o‘zi qanday tasavvur qilsa shunday yetkazib berishga harakat qilgan va bunda taqlid so‘zlardan unumli foydalangan. Abdulla Qahhor asarlarida faqat holatni ifodalash uchun taqlid so‘zlar bilan cheklanib qolmasdan, ulardan turli so‘zlar yasagan va bu uning hikoyalarini yanada tushunarli bo‘lishida alohida ahamiyat kasb etgan.

“...Toy uning ostida **gijinglar**, o‘zini u yoqdan-bu yoqqa tashlar edi...

...Alishtirib olsang gaplashib, **chaqchaqlashib** ketar edik...

...Bu yerdan uzoq adir etagida **yarqirab** turgan daryo ko‘rinar, qayerdanlardir o‘rdaklarning **g‘ag‘illashi** eshitilar edi. Hamma jim, tevarak-atrofdagi manzaraning gashti bilan mast edi...”⁸

“...Xo‘roz nima uchun saharda **qichqiradi**? Ajoyib psixologiya!”

“...Uning so‘zlaridan nima olgani haqida o‘ziga hisob berar ekan, g‘uvillab turgan boshida shun-dan boshqa hech narsa yo‘q edi: praktikum, minimum, maksimum; Detirding, Stending, Shelling, Mering, Demping...”¹¹

Bundan tashqari, g‘o‘ng‘illamoq, shang‘illamoq, vijirlamoq, lapanglamoq, taraqlamoq, shildiramoq, pichirlamoq, lo‘killamoq, laqillamoq, qarsillamoq, g‘uvillamoq, gijinglamoq, chaqchaqlashmoq, g‘ag‘illashmoq, yarqiramoq, yaltillamoq kabi fe‘llar taqlid so‘zlardan yasalgan va o‘z o‘rni-o‘rnida, o‘ziga yuklatilgan vazifasini bajarib qo‘llangan.

Shunday qilib, Abdulla Qahhor ijodida taqlid so‘zlar unchalik katta o‘rinni egallamasa ham ular o‘z o‘rnida, ijodkorning adabiy maqsadini amalga oshirish uchun, ya‘ni yozuvchi ongidagi fikrni (holatni) kitobxon tafakkuriga singdirish vazifasini bajarishda qo‘l kelgan. Agarda bunday so‘zlarning o‘rniga boshqalari qo‘llansa, asarni tushunish qiyin bo‘lardi. Aynan taqlid so‘zlar asar tilini xalq so‘zlashuv tiliga yaqinlashtirgan va tushunarligini osonlashtirgan. Albatta, bunda yozuvchining so‘z tanlash mahorati ham katta ahamiyatga ega. Shu o‘rinda aytib o‘tishimiz kerakki, Abdulla Qahhor o‘z asarlarini yozish davomida so‘zlarni chertib-chertib tanlaganligi yana bir isbotlandi.

¹⁰ Abdulla Qahhor “Dahshat” hikoyalar to‘plami, “Mahalla” hikoya, b-65.

¹¹ A. Qahhor “Daxshat” hikoyalar to‘plami “Adabiyot muallimi” hikoya, b-21.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Qahhor “Anor” hikoyalar to‘plami Yoshlar nashriyot uyi, 2018. 241B.
2. Abdulla Qahhor “Daxshat” hikoyalar to‘plami. www.ziyouz.com (<http://www.ziyouz.com/>). 2008. 74 B.
3. Isroilova Hulkar Baxtiyor qizi “Abdulla Qahhor asarlarining leksik xususiyatlari” maqola, 2022.
4. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova Hoirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. Toshkent, 2009.
5. www.ziyouz.com (<http://www.ziyouz.com/>).
6. www.xurshiddavron.kutubxonasi (<http://www.xurshiddavron.kutubxonasi/>).